

Ona tili va adabiyoti.

1) Qaysi qatorda faqat otlar berilgan?

- A) uchqun ,
to'lqin, bilimdon, qalamdon B) yong'in, toshqin, tu
zdon, kuldon
C) tuyg'un, keskin, qumdon, xumdon
D) so'lg'in, turg'un, suvdon

2) Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltiraverar edi. Ergashgan qo'shma gapning turini toping.

- A) Hol ergashgan qo'shma gap B) Ega ergashgan qo'shma gap C) Aniqlovchi ergashgan qo'shma gap D) To'diruvchi ergashgan qo'shma gap

3) Fe'llarning munosabat shakllarini toping.

- A) mayl , zamon , shaxs-son qo'shimchalari
B) to'liqsiz fe'llar , ko'makchi fe'llar , shaxs-son qo'shimchalari C) nisbat qo'shimchalari , mayl qo'shimchalari , bo'lishsizlik qo'shimchalari D) fe'llarda munosabat shakllari yo'q

4) Qaysi gapdagi sifat boshqalaridan ko'ra ko'proq ma'noli qismga ajraladi? A) Yo'ning ikki betidagi qoramtir, oq, qizil daraxtlarning tanga-tanga barglari iliq quyosh nuridan marbariddek tovlanadi. B) Uning chaqnoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'ychan turishi katta bardoshini, sadoqatini, aqlini aks ettirib turardi. C) G'iyos aka yumshoq ariq ustiga yonboshladi. D) Avaz dahlizdan rangdor vassali, sertokcha uyga kirdi.

5) Ravish gapda to'diruvchi vazifasini bajargan gapni belgilang. A) Mayor sabrsizlanib , har yoqqa tikildi. B) Xayollarim shamoldan tezroq uchadi. C) Ko'p kitoblar o'qib chiqdim. D) Ko'pdan quyon qochib qutulmas.

6) O'zlik olmoshi narsa o'rnida kelgan gapni belgilang. A) O'zni sezib pahlavonday, ulg'ayib zo'r kuchga to'ldim, o'zim, xohlab askar bo'ldim. B) Baxtsizliging sirini boshqalardan emas, o'zingdan izla. C) O'zi po'latdan , Dumi yog'ochdan. D) O'zingni er bilsang o'zgani sher bil.

7) Nutq tovushlarining asosiy vazifasini toping. A) so'z tuzishda ishtirok etish B) ma'lumotlarni yetkazish C) so'z ma'nosini farqlash D) aloqa vositasi vazifasini bajarish

8) Vazifadosh bog'lovchi ishtirok etgan gapni belgilang, A) Yozda Buxoroga qarindoshlarimizni ko'rgani bordik ham tarixiy obidalarni tomosha qildik. B) Qimmat ham sehrigar kampirning uyiga kelib qolibdi. C) Bu qizcha shu topda undan jon so'rasa, balki, ayamasdi. Lekin non qani? D) Oy goh eshik tirqishlaridan mo'ralar, goh bulutlar orasida g'oyib bo'lardi.

9) Ehtimol, eh, g'ir-g'ir, ofarin, taqir-tuqur, shekilli, evoh, yalt-yult, shubhasiz, hoy, duv-duv, beh-beh, albatta, qars-qurs, afsuski. Yuqoridagi so'zlardan nechtasi taqlid so'z hisoblanadi? A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

10) Ega qatnashgan gapni aniqlang. A) Jon qizim, o'zingni ehtiyot qil. B) El og'ziga elak tutib bo'lmaydi. C) Aqlni beaqldan o'rgan. D) Ilm ahllari voqeadan xabardor bo'ldilar.

11) Nodar Dumbadzening zamonaviy mavzudagi qaysi asarlarida insonlarning bir-biriga munosabatidagi odamiylik, oqibat singari fazilatlar ulug'langan? A) "Qishloq bolalari" B) "Men, buvim, Iliko va Illarion", "Quyoshni ko'ryapman" C) "Quyosh kechasi", "Oq bayroqlar" D) "Abadiyat qonuni", "Kukaracha".

12) X.To'xtaboyevning hujjatli qissasini belgilang. A) "Yillar va yo'llar" B) "Qiz bolaga tosh otmang" C) "Qaylarda qolding , bolaligim" D) "Yangi ohangda kuylayotgan viloyat"

13) Nuqtalar o'rnini to'ldiring. O'zbek adabiy tilining hozirgi shaklini bunyod etishda hech bir yozuvchikabi muhim o'rin tutmagan? A) Cho'lpon B) A.Qodiriy C) Fitrat D) A.Oripov

14) Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Ulug'bek haqida "O'g'illardan yolchimagan benasib padar, O'z shogirdin o'g'il deya topar tasalli" deb kim aytadi? A) Sakkokiy B) Piri Zindoniy C) Ali Qushchi D) Abdurazzoq

15) A.Navoiy qaysi dostonining xotimasida Nizomiy va Dehlaviyni ta'riflar ekan, turkiy tilda "Xamsa" yozishining sababini izohlagan? A) "Hayrat ul-abror" B) "Farhod va Shirin" C) "Layli va Majnun" D) "Sab'ayi sayyor